

VOYAGA YETMAGANLARGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI IJTIMOIY ILLATLARNING OLDINI OLIISH FAOLIYATI

Abdug'aniyev Temurbek Alimardon o'g'li

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

temurbekabdug'aniyuv402@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslarga ta'sir qiluvchi salbiy illatlar haqida bayon etilgan, Maqolada Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning turlariga qarab ularning qanday muhitda osganligini aniqlash mumkinligi, xamda voyaga yetmaganlar ortasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda va bu jarayondagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda avvalo huquqbuzarliklarni organish maqsadga muvofiqligi to'g'risida fikr yuritilgan..

Kalit so'zi: Voyaga yetmaganlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, deviant xulq-atvori, ichkilikbozlik, giyohvandlik vositalari, oila muhiti, psixologik xususiyatlar.

Voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy illatlarning ijtimoiy xavfiga to'xtaladigan bo'lsak buning ro'li juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ya'ni voyaga yetmaganlar har xil ta'sir ko'rsatuvchi illatlarni o'rganish, ulardan alkogolizm, ichkilikbozlik, giyohvandlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va boshqa hakazolar o'rganishi iste'mol qilishi natijasida huquqbuzarliklar sodir qilish, shaxs, jamiyatga xavf solishi hech gap emas. Shu boisdan, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda avvalo voyaga yetmaganlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratish, bu borada samarali usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. "Alkogolizm" atamasi esa 1849-yilda shvetsariyalik vrach va jamoat arbobi M.Gruss tomonidan organizmning spirtli ichimliklar ko'p iste'mol qilish ta'siriga tushib qolishini anglatuvchi kasallik tushunchasini ifodalash uchun fanga kiritilgan [1]. "Ichkilikbozlik" atamasi ijtimoiy salbiy hodisa sifatida "alkogolizm" esa, odatda kasallik sifatida baholanadi. Ichkilikbozlik alkogolizmni yuzaga keltiradi, ammo kasallik deb baholanmaydi.

Ichkilikkka ruju qo'ygan ota-onalar farzandlar tarbiyasiga, mamlakat kelajagiga jiddiy salbiy ta'sir etmoqdalar. 2011 -yil 5-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarning tarqalishi hamda iste'mol

qilinishing cheklash to'grisida"gi qonun ichkilikbozlikni oldini olishda katta ahamiyatga ega[2]. Ushbu qonunning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib ichkilikbozlikni oldini olishga quyidagicha ta'rif berish mumkin: huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan amalga oshiradigan alkogol mahsulotlarni iste'mol qilishning salbiy ta'siri profilaktikasi, jamoatchilik ongida alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy, tashkiliy-huquqiy hamda boshqa chora-tadbirlar majmui. Bunda huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari sifatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat va notijorat tashkilotlari, korxonalar, ta'lim muassasalari va ota-onalar asosiy o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining "giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida "gi qonunining 3-moddasiga muvofiq [3]: Giyohvandlik vositalari - giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar. Psixotrop moddalar -psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar.

Giyohvandlik- giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bo'lsa,psixotrop moddalarga qaramlik esa zaxarandlikdir.

Tabiiy va huquqiy adabiyotlarda har qanday giyohvandlik vositasiga xos bo'lgan uch belgi qayd etiladi:

Tabiiy belgi: giyohvandlik vositasi markaziy nerv sistemasiga ta'sirlantiruvchi, ganggituvchi, gallyutsinogen ta'sir ko'rsatadi, notabiiy maqsadlarda iste'mol qilinganda sog'liqqa zarar yetkazuvchi ruhiy va jismoniy qaramlikni keltirib chiqaradi.

Huquqiy belgi: O'zbekiston Respublikasida muomalada bo'lishi ta'qiqlangan yoki cheklangan giyohvandlik vositalari ,psixotrop moddalar hamda prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalari.

Ijtimoiy belgi: giyohvandlik vositasini notabiiy maqsadlarda iste'mol qilishning aholi sog'lig'i uchun xavfliligi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi shart -sharoitlardan kelib chiqib ularni quyidagi ikkita turga ajratish mumkin:

1.Tashqi shart -sharoitlar ,jamiyatdagi salbiy ijtimoiy illatlarning mavjudligi, xususan, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlik, "ommaviy madaniyat", ekstremizm va terrorizm;

2.Ichki shart-sharoit, xususan, oiladagi salbiy muhit, oila a'zolaridagi yomon xulqning salbiy ta'siri va boshqalar.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning turlariga qarab ularning qanday muhitda o'rganilganini aniqlash mumkin, shu boisdan voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda va bu jarayondagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda avvalo huquqbuzarliklarni o'rganish maqsadga muvofiq. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar tahlil etilganda ularning quyidagi alohida ko'rinishlariga e'tibor berish lozim:

1. Jamoat tartibi va axloqiy talablarni buzish (noaxloqiy xulq -atvor)

2. Turli xildagi mayda qonunbuzarliklar (qonunga xilof xati-harakat)

3. Qonuniy talablarni buzish, jinoyat sodir etish (jinoiy xati-harakat) kabilar. Shu tufayli jamiyatga zid xulq -atvorni barcha turlarini bir-biri bilan uzviy bog'liq va qoidaga binoan bir biriga sababchidir.

Shuning uchun huquqbuzarliklarning va huquqbuzarliklarni oldini olish samaradorligini oshirishda, unga sharoit yaratayotgan, jamiyatga ziyon yetkazayotgan sabablar bilan kurashishni kuchaytirish zarur.

Voyaga yetmaganlarning o'ziga xos xususiyatlardan eng muhimi shundaki, oilada va maktab jamoasida o'z o'rinini topa olishi nihoyatda murakkabdir, shu bois ham ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar quyidagi omillarni bir-biriga ta'siri natijasida vujudga keladi:

1. Tashqi muhitning voyaga yetmagan o'smirlarga bo'lgan ta'siri;

2. Voyaga yetmagan o'smirning shaxsi;

3. Voyaga yetmagan o'smirlarning jamoada tutgan o'ri;

Oila muhiti va tashqi muhit voyaga yetmaganlarni shaxsiga nihoyat darajada tez ta'sir qiladi, bunday ta'sir qilish natijasida voyaga yetmaganlarga jamiyatda zid bo'lgan quyidagi salbiy xislatlar shakllanib borishida katta o'rinni egallaydi. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar oilalari tuzilmasida ijobiy oilalar katta o'rin tutadi. Ulardan taxminan 60 foizdan kam ilg'anadigan bolalar tarbiyasi xatolari ko'rinadi: 34,5 foiz oilalarda bolani doimo asossiz erkalashadi, 26,2 foiz oilada esa Bolani mustaqilidan va oila muammolaridan ajratilgan. O'rganilgan oilalar moddiy ahvoli yaxshi. Faqat, 12-13 foiz oilalarda moddiy kamchiliklar bor. Qolgan oilalarda hamma narsa yetarli, ularning ko'pchiligida moddiy ehtiyojlar ma'naviyatlaridan ustun qo'yilib, shu orqali bolalarning qimmat narsalarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi. Oila tomonidan nazoratsiz qolish, o'quv tarbiya jamoasini ta'siridan tushib qolish yoshlarda javobgarsizlik va beboshlik hisini mustahkamlaydi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olishning zamonaviy sharoitida asosiy diqqat e'tibor, voyaga yetmagan tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini oluvchi dastlabki profilaktika masalalariga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumki, bolalar nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham tarbiya ta'siri ostida bo'lishlari kerak. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim-tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi [4]. Shu sababli maktablar turar joylarda pedagogik markazlarga aylanib, bolalar qanday yashayotganlari va ular bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganliklari borasida javobgarlikni o'z zimmasiga olishlari zarur. Tahlil etilgan ijobiy natijalar shunday dalolat beryaptiki, qayerdagi pedagogik jamoalar bunday javobgarlikni o'z zimmalariga olib o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etgan bo'lsalar, o'sha yerda qonunbuzarliklar juda kam sodir etiladi. Voyaga yetmaganlarning shaxsini shakllantirishda va huquqbuzarlikning oldi olindi pedagogik usullarni o'zgarishlariga moslab borish va pedagogik savodsiz oilalar bilan aloqa qilish, ularni mas'uliyatini oshirish muhimdir. Bunda ko'pgina mutahassislar, jumladan sotsiologlar, pedagog va yuristlarning faolligi talab qilinadi. Shu bilan birga voyaga yetmagan to'liq ijtimoiy shaxs emasligi, uning rivojlanish bosqichida ekanligini inobatga olib, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, hozirgi paytda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va huquqbuzarliklarni oldini bolish dolzarb muommalardan biridir. Chunki kelgusi ishlarning davomchilari aynan o'sib kelayotgan yosh avloddir, ular davlatning kelajagini belgilaydi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish uchun, avvalo ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashimiz va bartaraf etishimiz maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, joylarda umumiy profilaktikadan unumli foydalanish va bularni yuritishda yoshlar tarbiyasiga bevosita ma'sul shaxslar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilishi ijobiy natijalarni beradi. Bundan tashqari huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan yakka profilaktik tarbiyaviy ishlarni yuritishda ularning yosh va profilaktik tarbiyaviy ishlarni yuritishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarni inobatga olib tashkillashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash kerakki, "voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorism, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish" muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, huquqbuzarliklar profilaktikasida salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy illatlar aniqlash va uning

profilaktikasini tashkil etish jarayonida huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha turlaridan o‘z o‘rnida foydalanilishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1 O‘smirlik davrida spirtli ichimliklarga qaramlikning oldini olish.alkogolizm tushunchasi <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/6324/4918>
- 2 O‘zbekiston Respublikasining Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste‘mol qilinishini cheklash to‘g‘risida qonuni <https://lex.uz/acts/-1880029>
3. O‘zbekiston Respublikasining Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida onuni <https://lex.uz/acts/-86044>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori <https://lex.uz/acts/-3175732>